

# SOLIQLAR YIG'ILUVCHANLIGIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLARNING RIVOJLANISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11398570>

**Suxrob Rustamovich Allayarov**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Moliya" kafedrasida dotsenti,*

**Navro'zbek Mustafaxanovich Abrorov**

[navrozbekabrorov@gmail.com](mailto:navrozbekabrorov@gmail.com)

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti*

**Annotasiya:** *Ushbu tezisdagi mamlakatimizda soliqlar yig'iluvchanligidagi muammolar va ularni hal etishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'rida yozilgan. Shuningdek, mavjud muammolarni bartaraf etish uchun taklif va tavsiyalar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *davlat byudjeti daromadlari, soliq siyosati, soliq yuki, soliq stavkalari, yashirin iqtisodiyot.*

Mamlakatimiz ham boshqa xorijiy davlatlar qatori, o'zining davlat xarajatlari va xizmatlarini moliyalashtirishda umumiy olganda soliq tizimi orqali kelgan tushumlariga tayanadi. Oxirgi yillarda davlatimiz byudjet daromadlarini oshirishni ta'minlash maqsadida soliqlarning yig'iluvchanligini yaxshilash yo'llarini chuqur isloh qilmoqda. Shu bilan birga, soliq tizimidagi islohatlarni unumli va shaffof amalga oshirish davlatning iqtisodiyotini rivojlantirish va barqarorlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Hammamizga ma'lumki, hozir ham mamlakatimizda soliq sohasi bo'yicha bir qator kamchiliklar mavjud. Bulardan biri soliq tizimining murakkabligi bo'lsa, boshqasi ayrim soliq stavkalarining yuqoriligi bilan nomoyon bo'lmoqda. Bunday muammolar aynan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyuldagi PF-5468-sonli "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi farmoni negizida ilk bor keng ko'lamda qayta ko'rib

chiqildi.<sup>33</sup> Ushbu farmon doirasida real iqtisodiy o‘shishga, tadbirkorlik va biznes faollikni oshirishga, bozor iqtisodiyoti sharoitida sog‘lom raqobatni rivojlanishiga, shuningdek, soliqlar va boshqa shunga o‘xshash majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirishga bir qancha tizimli muammolar aytib o‘tildi. Shuningdek, yangi ochilayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlardan olinadigan soliq turlaridagi stavkalarining yuqoriligi tufayli tadbirkorlik va xususiy sektor sohalari o‘sishi tobora sekinlashmoqda hamda mavjud xususiy sektorlarda soliq to‘lashdan qochish holatlari tez-tez ko‘zga tashlanmoqda, bu esa mamlakatimizda yashirin iqtisodiyotni oshishiga sabab bo‘lyabdi. Joriy yilning avgust holatiga ko‘ra mamlakatimizda yashirin iqtisodiyotning ulushi 40% ni tashkil etdi va bu deyarli 32 milliard dollarga teng bo‘ldi. Ba‘zi rivojlangan davlatlarda bu ko‘rsatkichlar mamlakatimizga qiyoslaganda sezilarli darajada past. Masalan, Australiyada – 8.7%, Shvetsariyada – 7.5%, Germaniyada – 11.2%, Yaponiyada – 9.6%, Amerika Qo‘shma Shtatlarida – 7.3%, Fransiyada – 13.1%, Singapurda esa – 10.4% ni tashkil etdi.<sup>34</sup>

Bu muammolarni hal etish maqsadida yurtimizda soliq qonunchiligi va soliq osti qoidalarni soddallashtirish, jismoniy va yuridik shaxslarga murakkab bo‘layotgan soliq kodeksiga o‘zgartirishlar kiritish, tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlar va tartib-qoidalarni soddalashtirish, soliq nazoratini kuchaytirish, soliq nazorati organlari uchun texnologiya va treninglarga sarmoya kiritib, hukumat qonunbuzarliklarini aniqlash va soliq to‘lashdan bosh tortganlarni munosib tarzda jazolash tizimini ishlab chiqish, soliq to‘lovchilarni ixtiyoriy va o‘z vaqtida majburiyatlarini bajarayotganliklari uchun rag‘batlantirish va imtiyozlar taqdim etish hamda soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish orqali iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash va byudjet daromadlarini oshirish maqsad qilib qo‘yildi. Aytish kerakki, bunday chora-tadbirlar amalda o‘z ifodasini topishi bilan soliq yuklaridan kelgan tushumlar sezilarli oshdi va yashirin iqtisodiyotga asta-sekin barham berila boshladi.

<sup>33</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyuldagi PF-5468-sonli “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi farmoni <https://www.lex.uz/>

<sup>34</sup> <https://www.worldeconomics.com/Country-Data/>

Jumladan, aksiz solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, hamda mol-mulk solig'i stavkalaridagi o'zgarishlar orqali bularning byudjet daromadlaridagi ulushi oshdi.

Xususan, qo'shilgan qiymat solig'i stavkasining 2023-yil 1-yanvarda 2022-yil amalda bo'lgan 15 %dan 12 %ga tushirilgani sababli soliq to'lovchilar soni oshib, soliq to'lashdan qochish holatlari kamaydi va bu o'rnida byudjet daromadlarining oshishiga olib keldi. Misol uchun, 2023-yil 1-noyabr holatiga ko'ra QQS to'lovchilar soni 192 059 taga yetdi va bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,2 foizga oshganini anglatadi.

Shuningdek, keng doiradagi rivojlanishni davom ettirgan holda, yurtimiz prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmoni, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ham soliq siyosatini takomillashtirish va yashirin iqtisodiyotni oldini olish haqida alohida to'xtalib o'tildi. Ushbu strategiyaning 46 hamda 56-maqsadlari aynan shularni qamrab oladi<sup>35</sup>:

46-maqsad – Fiskal barqarorlikni ta'minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish:

- "Yashirin iqtisodiyotni"ni qisqartirish orqali soliq bazasini qo'shimcha kengaytirish imkoniyatidan foydalanish;
- Markirovkalash va raqamlashtirish tizimi samarasini oshirish va kengaytirish orqali soliq ma'murchiligi tizimining samaradorligini yanada oshirish.

56-maqsad – Monopol sohalarni bozor tamoyillariga izchil o'tkazish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish, tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritishi uchun eng qulay sharoitlar yaratish:

- Soliq tizimining barqarorligini ta'minlash maqsadida biznes uchun qo'shilgan qiymat va foyda soliq stavkalari uch yil davomida oshirilmasligini kafolatlash;
- Soliq tizimini to'liq raqamlashtirish, soddalashtirish va barcha tadbirkorlar uchun teng imkoniyatlar yaratish, rasmiy sektor – nolegal faoliyatdan afzal va manfaatli bo'lishi uchun barcha zarur sharoitlarni ta'minlash.

<sup>35</sup> <https://lex.uz/docs/-6600413#-6605156>

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining yuqorida keltirilgan tegishli maqsadlariga muvofiq shuni erkin ayta olamizki, kelgusi yillarda O‘zbekiston Respublikasida soliq siyosati tubdan isloh qilinadi va bu islohatlar ham soliq to‘lovchilar uchun ham davlatimiz byudjeti daromadlari shakllanishi uchun mos ravishda shaffof va samarali bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganimda, soliq siyosatining shaffof, oqilona, sodda va mustahkam tizimi mamlakatimizga sog‘liqni saqlash, ta‘lim va infratuzilmani rivojlantirish kabi eng muhim davlat xizmatlarini moliyalashtirish imkonini beradi. Ushbu investitsiyalar O‘zbekiston Respublikasining umumiy iqtisodiyotini hamda jahon miqyosida raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti soliq tushumlarining doimiy va etarli darajada ta‘minlanishiga tayanadi. Soliqlarni yig‘ish bo‘yicha sa‘y-harakatlarni kuchaytirish va yashirin iqtisodiyotning oldini olish hukumat iqtisodiy rivojlanishiga yordam berishi, davlat xizmatlarini yaxshilashi va mamlakatning barqaror rivojlanishini ta‘minlashi shak-subhasizdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

- 1) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyuldagi PF-5468-sonli “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, manba - <https://www.lex.uz/>
- 2) Allayarov, S. A. (2020). Strengthening tax discipline in the tax security system: Features and current problems. *South Asian Journal of Marketing & Management Research*, 10(11), 124-128.
- 3) Allayarov, S., Allayarov, S., Yuldasheva, U., & Madjidov, N. (2020). Assessment of the effectiveness of the results of the fiscal policy of the republic of Uzbekistan. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(7), 7920-7926.
- 4) Allayarov, S. (2018). Theoretical Study of Optimal Fiscal and Monetary Policies for Stimulating Economic Growth. *Research Journal of Finance and Accounting*, 9(8), 206-212.

- 5) <https://kun.uz/uz/news/2023/10/03/ozbekistonda-yashirin-iqtisodiyot-ulushi-32-mlrd-dollariga-baholanmoqda>
- 6) <https://www.worlddeconomics.com/Country-Data/>

